MUTOLAA ORQALI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING AXLOQIY FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH

Kamoljonova Dilfuza Xoldorovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti matbuot kotibi,

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirish orqali ularning axloqiy fazilatlarini (vatanparvarlik, mas’uliyat, mehr-oqibat, rahm-shafqat) rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari tadqiq qilingan. Muallif doimiy va bosqichma-bosqich takomillashuvga asoslangan “Kaizen” texnologiyasini mutolaa jarayoniga joriy etish imkoniyatlarini asoslab beradi. Shuningdek, milliy ertak, hikoya va dostonlarning o‘quvchi kognitiv, ijtimoiy-kommunikativ hamda axloqiy-ma’naviy rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilinib, kitobxonlikni rivojlantirishda oila, maktab va mahalla hamkorligining ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, mutolaa madaniyati, axloqiy fazilatlar, Kaizen texnologiyasi, milliy kitoblar, vizual va audiokitoblar, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar, oilaviy kitobxonlik.

Аннотация: В статье исследуются педагогико-психологические механизмы развития нравственных качеств (патриотизм, ответственность, доброта, сострадание) у учащихся начальных классов путем формирования культуры чтения. Автор обосновывает возможности внедрения в процесс чтения технологии «Kaizen», основанной на постоянном и поэтапном совершенствовании. Также проанализирована роль национальных сказок, рассказов и дастанов в когнитивном, социально-коммуникативном и нравственно-духовном развитии учащихся, показаны социально-педагогические условия сотрудничества семьи, школы и махалли в развитии чтения.

Ключевые слова: начальное образование, культура чтения, нравственные качества, технология Кайдзен, национальные книги, визуальные и аудиокниги, когнитивное развитие, социально-педагогические условия, семейное чтение.

Abstract: This article investigates the pedagogical and psycholog-

ical mechanisms for developing moral qualities (patriotism, responsibility, kindness, compassion) in primary school students through the formation of a reading culture. The author substantiates the possibilities of implementing “Kaizen” technology into the reading process, which is based on constant and gradual improvement. Furthermore, the role of national fairy tales, stories, and epics in the cognitive, socio-communicative, and moral-spiritual development of the student is analyzed, and the socio-pedagogical conditions for cooperation between the family, school, and mahalla in the development of reading are demonstrated.

Keywords: primary education, reading culture, moral qualities, Kaizen technology, national books, visual and audiobooks, cognitive development, socio-pedagogical conditions, family reading.

Mutolaa xulqni tarbiyalovchi, eng yaxshi va samarali vositadir, mutolaa koʻnikmalarini erta yoshdan bosqichma-bosqich va toʻgʻri tashkil qilish – boshlangʻich sinf oʻgʻil-qizlarining bilimini oshirishi bilan birga mutolaa orqali xulqini tarbiyalaydi, ularda oʻz xatti-harakatlariga masʼuliyat, vatanparvarlik, mehr-oqibat, rahm-shavqat ruhida tarbiyalashda muhim rol oynaydi.

Bu jarayonda “Kaizen” texnologiyasi mutolaa orqali bola xulqini yaxshi tomonga oʻzgarishini taʼminlab beradi. Atama yapon tilidan oʻzbek tiliga yaxshi tomonga oʻzgarmoq, deb tarjima qilinadi. Doimiy takomillashib borish, zarur koʻnikmalarni kompetensiya darajasiga olib chiqish ham “Kaizen” texnologiyasining bosh maqsadi hisoblanadi.

Mazkur texnologiya asosida dastavval biznes operatsiyalari amaliyotida joriy qilingan boʻlib, hozirda bu texnologiya koʻplab sohalarda, jumladan, pedagogikada ham keng qoʻllaniladi.

Yangi bilim va koʻnikmalar bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, bosim bermasdan, izchil davom ettirilgan taʼlim va tarbiyaga asoslanadi.

Xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalarida boshlangʻich taʼlim jarayonida mutolaani rivojlantirishning turli modellari ishlab chiqilib, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, oʻquvchilarda kitobxonlik koʻnikmalarini shakllantirish orqali ularning ijtimoiy hayotga munosabatlarini kuchaytirish, ijodiy salohiyatini rivojlantirish va pedagogik ijodkorlikni qoʻllab-quvvatlash masalalari dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro pedagogik tajribalarda kitobxonlikni rivojlantirish jarayonini taʼlimning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri sifatida baholash holatlari keng tarqalgan. Mazkur holatlardan kelib chiqqan holda, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kitobxonlik koʻnikmalarini rivojlanti-

rish jarayonini milliy va xalqaro talablar uyg‘unligida takomillashtirish, pedagogik jarayonda innovatsion kitoblardan samarali foydalanish hamda o‘quvchilarning shaxsiy-ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir etuvchi ilmiy asoslangan mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kunning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlay olish salohiyatini shakllantirish, voqelikka ongli munosabat bildirish, shaxsning daxldorlik tuyg‘usi va ijtimoiy faollik sifatlarini tarbiyalash orqali tafakkuri va tasavvuri rivojlangan barkamol shaxsni voyaga yetkazishning me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Besh tashabbus, uzluksiz ta’lim konsepsiyasida ustuvor vazifalar – ma’naviy yetuk, jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish kabi maqsadlar boshlang‘ich ta’lim tizimini ham qamrab olmoqda. O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ularning ma’naviy olamini boyitish va ijtimoiy faolligini kuchaytirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish dolzarb ahamiyatga ega. Chunki kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish – faqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning intellektual rivojlanishi, ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlashi, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi uchun muhim zamin yaratadi. Shu asosda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda kitobxonlik ko‘nikmalarini samarali tarkib toptirishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa, bir tomondan, milliy ma’naviy merosga tayanishni, ikkinchi tomondan, xalqaro pedagogik tajribalardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Ushbu ustuvor vazifalarni amalga oshirish natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishni tarkib toptirishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

Kaizen texnologiyasi orqali og‘zaki va yozma nutqning ravonligi, savodxonlik darajasini oshirish, diqqat va xotirani yaxshilash, asar syujeti va qahramonlar xatti-harakatidan xulosa chiqarish, emotsional-hissiy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Ko‘rish orqali qabul qilinadigan – vizual shakldagi kitob turiga surat, rasm, slayd, diagramma, rasmli jadval kiradi.

Eshitish orqali qabul qilinadigan, audiokitob: qo‘shiq, audio adabiyotlar, ovozli dars mashg‘ulotlari.

Milliy ertaklar, hikoyalar, maqollar, doston va rivoyatlar o‘quvchilarda quyidagi rivojlanish yo‘nalishlarini ta’minlaydi: kognitiv rivojlanish – so‘z boyligini kengaytiradi, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi; ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish – guruhiy bahs-munozaralarda qatnashish, o‘z fikrini asosli ifodalash malakasini kuchaytiradi; axloqiy-ma’naviy rivojlanish – milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik va mehr-oqibat tuyg‘usini mustahkamlaydi; ijodiy rivojlanish – ertak va hikoyalar asosida yangi g‘oyalar ishlab chiqish, tasavvurni kengaytirish imkonini beradi. Shu bois milliy kitoblardan foydalanish o‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning eng muhim pedagogik vositalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur jarayonni yanada samarali yo‘lga qo‘yishda kitobxonlikka ta’sir etuvchi bir qator omillarni hisobga olish zarur. Jumladan, psixologik omillar – motivatsiya, diqqatni jamlash qobiliyati, irodaviy nazorat va shaxsiy qiziqish darajasi; ijtimoiy omillar – oilaviy muhit, ota-onaning kitobxonlikka bo‘lgan munosabati va tengdoshlarning ta’siri; pedagogik omillar – o‘qituvchining metodik mahorati, dars jarayonida innovatsion metodlardan foydalanishi, milliy kitoblarning sifatli tanlanishi jarayonni belgilovchi hal qiluvchi omillar hisoblanadi. Mutolaa jarayoniga integrativ yondashuvni qo‘llash – milliy kitoblarni barcha fanlarning tarbiyaviy komponenti sifatida kiritish; xulq-atvor ijtimoiy-pedagogik korreksiyasi, ijtimoiy hamkorlik muhitini shakllantirish – ota-ona, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida birgalikda mutolaa loyihalarini amalga oshirish dolzarbdir. Shu bilan birga, o‘quvchilarning rivojlanish darajasini tizimli baholashda kognitiv, ijtimoiy-kommunikativ va motivatsion mezonlar asosida monitoring olib borish ta’lim samaradorligini oshiradi. Milliy kitoblar vositasida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yuksaltiradi, balki ularning milliy qadriyatlarga munosabati, mustaqil fikrlash qobiliyati, ijodkorligi va ijtimoiy faolligini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, “Yangi O‘zbekiston” ta’lim tizimining ustuvor maqsadlari – intellektual salohiyatli, ma’naviy yetuk, mustaqil qaror qabul qila oladigan va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan barkamol avlodni tarbiyalash bilan bevosita uyg‘unlashadi.

Demak, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro tajribalar va milliy kitob uyg‘unligida tashkil etilgan kitobxonlik jarayoni o‘quvchilarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki mustaqil fikrlash, ijodiy tasavvur va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli, bosh-

lang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini ta’lim-tarbiya tizimining ustuvor vazifasi sifatida ko‘rish, uni innovatsion metodlar va milliy qadriyatlar uyg‘unligida tashkil etish bugungi kunda dolzarb pedagogik zaruriyat hisoblanadi.

Milliy kitoblar vositasida o‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi va ularning uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir. Avvalo, oilaviy muhit bu jarayonning tabiiy boshlang‘ich nuqtasidir. Ota-onalarning farzandlari bilan birgalikda ertak va hikoyalar mutolaasi, uy sharoitida milliy adabiyot namunalaridan iborat kichik kutubxona yaratish, ota-onalarning o‘zlari muntazam kitob o‘qib, farzandlariga shaxsiy namuna bo‘lib ta’sir ko‘rsatishi bolalarda kitobga barqaror qiziqish uyg‘otadi. Bu omillar, bir tomondan, o‘quvchilarning ma’naviy ehtiyojlarini shakllantirsa, ikkinchi tomondan, mustaqil mutolaa qilishga ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

Jamiyat va mahalla muhitida ham kitobxonlikni rivojlantirishning shart-sharoitlari katta ahamiyat kasb etadi. Mahalla kutubxonalarini jonlantirish, bolalar uchun ertak va hikoya burchaklarini tashkil etish, yoshlar markazlari va jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy loyihalar o‘quvchilarni muntazam kitobxonlikka jalb qiladi.

Ota-ona va bola birgalikda kitob o‘qib, xulosalar chiqaradigan loyihalar esa nafaqat kitobxonlik madaniyatini, balki oilaviy qadriyatlar mustahkamligini ham ta’minlaydi. Bu orqali jamiyat miqyosida kitobxonlik madaniyatining kengayishi, yosh avlodning ma’naviy dunyosi va intellektual salohiyatining ortishi kuzatiladi.

Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash shart-sharoitlari o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos yondashuvni talab etadi. Bolalarga yoshiga mos, qiziqarli va rang-barang milliy kitoblarni tanlab berish, rag‘batlantirish tizimi orqali kitob mutolaasiga ichki ehtiyojni shakllantirish zarur. O‘qituvchilarning milliy adabiy merosni o‘quvchilarga yetkazishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishi esa, jarayon samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6017-son Farmoni. – URL: https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoni. – URL: https://lex.uz

3. Abdulazizov A.H. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida mutolaa madaniyatini shakllantirish jarayonining sotsiologik tahlili: sotsiol. fan. nom. ... dis. avtoreferati. – Toshkent, 2010. – 30 b.

4. Abdulazizov A.H. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida mutolaa madaniyatini shakllantirish jarayonining sotsiologik tahlili: Monografiya. – Namangan: Navro‘z, 173 b.

5. Abdullayeva N.Sh. Bolalar adabiyoti: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Erudit, 2024. – 396 b.

6. Adler Mortimer, Doren Charlz Van. Kitoblar qanday o‘qiladi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 414-450 b.